

SUN'IY INTELLEKT VA TARJIMA SIFATI: INSON OMILI BILAN TAQQOSLASH

Erkinova Marjona Alisher qizi

O'zDJTU, Sharq tillari fakulteti Turk tili yo'nalishi talabasi

Erkinova.marjon555@gmail.com

Annotatsiya. So'nggi yillarda sun'iy intellekt asosidagi tarjima tizimlari shu qadar rivojlandiki, matnlarni tez va samarali boshqa tilga o'girishda turli xil sun'iy intellekt dasturlaridan foydalanilmoqda. Sun'iy intellekt orqali qilingan tarjima matnlari tezlik va sifat jihatidan ustunlikka ega bo'lsa-da, inson omili matnga badiiy obraz qo'sha olishi va madaniy qadriyatlarni yetqizib bera olishi bilan ustuvor hisoblanadi. Natijada eng muqobil yo'l ikkala tomonlar hamkorligiga asoslanadi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, badiiy obraz, madaniy kontekst, neytrallik, kontekstual noziklik, adabiy ohangdorlik.

Аннотация. В последние годы системы перевода на основе искусственного интеллекта развились до такой степени, что различные программы искусственного интеллекта используются для быстрого и эффективного перевода текстов на другой язык. Хотя переводы на основе искусственного интеллекта имеют преимущества с точки зрения скорости и качества, человеческий фактор считается более эффективным с точки зрения добавления художественной образности к тексту и передачи культурных ценностей. В результате наиболее предпочтительным представляется сотрудничество обеих сторон.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, художественная образность, культурный контекст, нейтральность, контекстуальная тонкость, литературная мелодрама.

Annotation. In recent years, artificial intelligence-based translation systems have developed to such an extent that various artificial intelligence programmes are used to quickly and efficiently translate texts into another language. Although artificial intelligence-based translations have advantages in terms of speed and quality, the human factor is considered to be superior in terms of adding artistic imagery to the text and conveying cultural values. As a result, the most alternative path is based on the cooperation of both parties.

Keywords: Artificial intelligence, artistic imagery, cultural context, neutrality, contextual subtlety, literary melodrama.

Kirish. Hozirgi raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan bir paytda har jabhaning yangi imkoniyatlar va shu bilan birgalikda yangi muommolar tizimi ham paydo bo'lmoqda. Shulardan biri tarjima sohasiga tegishlidir. Ushbu sohada ham zamonaviy muommoga zamonaviy yechim sifatida SI (sun'iy intellekt) dan foydalanish allaqachon boshlangan. Qisqa vaqt ichida yirik hajmli ma'lumotlarni tarjima qilib bir qancha insonlar vazifasini yengillashtirayotgan SI tarmoqlari ancha dolzarbdir. Tadqiqot davomida inson omili yordamida qilingan tarjima va SI natijalarini taqqoslagan holda ularning farqliliklari hamda qulayliklari o'rganiladi. Aniqlik hamda tezlik jihatidan SI anchagina ustuvor bo'lmasin, inson trjimasini har doim muhimdir, chunki madaniy kontekstni saqlash hamda uni boshqa bir madaniyatga tushunarli qilib anglatish mahorat va tajriba talab qiladigan jarayondir.

Tahlil va muhokama. Tarjima faqatgina soʻzlarni almashtirish emas, balki murakkab lingvistik jarayondir [1, 8-b.]. Bu mavzuga chuqurroq kirib borar ekanmiz tarjima faqatgina bir soʻzni boshqa soʻz bilan aynan ekvivalentiga oʻgirish emas, balki madaniyatni ham oʻzga bir madaniyat aholisiga mos qilib yetqizish pozitsiyasi ekanligiga amin boʻlamiz.

SI tarjimalariga toʻxtalganda taʼkidlash karakki, ular konteks va madaniy omillarni yetarlicha aks ettira olmasligi aniqlashadi. Aynan shu borada Venutining “Tarjima jarayoni hech qachon neytral boʻlmaydi” fikrlari dalil boʻla oladi [2, 1-b].

Badiiy asar tarjimasida ham SI dan keng qamrovda foydalaniqlmoqda, ammo badiiy tasvir interpretatsiyasida hali hanuz inson vositasi yetakchi oʻrindadir. “He was comfortable but suffering, although he did not admit the suffering at all” [3, 15-b]. Ushbu asar SI orqali qilinganda “comfortable” soʻzi boshqa tildagi muqobil varyanti bilan shunchaki oʻzgartirilib “qulay” soʻzi bilan oʻrin almashardi. Bunda tarjima toʻgʻri va aniq boʻlsa-da, kitobxonda soxtalik va qiziqishni soʻndirish holatlari uchrashi mumkin. Natijada biror chet el yozuvchi asari yoki chet tiliga tegishli manbalar tarjima qilingan tilida oʻz qiymatini yoʻqotadi. Yuqorida keltirilgan jumla oddiy SI tarjimoni yordamida talqin qilinganda quyidagicha yetqaziladi: “U qulay edi, lekin azob chekayotgan edi, garchi u azobni tan olmagan boʻlsa ham”. Barcha soʻzlar ketma-ketlikda va toʻgʻri tarjimada, ammo unga badiiy uygʻunlik qoʻshilganda: “U oʻzini erkin tutar, ammo azob chekardi, garchi bu azobni oʻzi tan olmasa ham” kabi maʼno hosil boʻladi. Natijada ikkala tarjima ham aniq va sifatli, lekin mutolaani davomiy va qiziqarli qilishda har doim anʼanaviy tarjima ustuvorlikda.

Oʻzbek badiiy adabiyotiga nazar tashlaganda ham, uni boshqa bir tilga adaptatsiya qilinishida bir qancha noqulayliklarga uchrash tabiiy holatdir. Oʻzbek tili shevalarga va iboralarga boyligi bilan boshqa tillardan ajralib turadi. Misol uchun “Koʻngil koʻzi bilan qaramoq kerak” iborasini olsak. [4, 45-b] Mazkur iborada ham milliy uygʻunlik ham milliy lingvistik boylik mavjud va uni shunchaki kontentiga mos qilib oʻgirish yoki ekvivalent lingvistik birikmalar bilan almashirish toʻgʻri yechim bermaydi. Bu uchun algoritmik tarjimaga emas, balki bir necha yillik tajribaga ega lingvistik vositachiga yuzlanish kerak.

Milliy qadriyatlarimizdan yana biri boʻlgan “alla”lar ham tarjima jarajonida bir qancha muommolarga uchrashi mumkin. “Alla-alla, oppogʻim, Uyqu kelsin oppogʻing” [5, 112-115-b], ushbu soʻzlar ham milliy kontekstni boshqa sharq va gʻarb qadriyatlariga aslicha singdirolmiydi. Bu borada inson ham baʼzi noqulayliklarga duch kelar ekan, bu kabi tarimalarni SI ga ishonib topshirish xatodir.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan manbalarga asoslanar ekanmiz, SI qanchalik tezkor boʻlmasin inson mehnati hamisha yordamga muhtoj. Ayniqsa allalar kabi milliylik ramzi boʻlgan qadriyat symbolari qandaydir algoritm tomonidan insonga anglattirilishi mantiqqa ziddir. Insonga hos boʻlgan hissiy kechinmalar, yumor va koʻchma maʼnolardagi adekvatlilik tarjimadagi talab qilinadigan unsurlardan biridir. Bu borada eng samarali yoʻl sunʼiy intellekt yordamida matnlarni tarjima qilish va uni inson qoʻli bilan sayqallashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Introducing Translation Studies. Munday J.(2016). Introducing translation studies: Theories and applications(4th ed.). Routledge. 8-bet.
2. The Translator’s Invisibilty. Venuti L.(1995). The translator’s invisibilty: A history of translation. Routledge. 1-bet.

3. The Old Man and the Sea. Hemingway E.(1952). The old man and the sea. Charles Scribner's Sons. 15-bet.
4. O'tkan Kunlar. Qodiriy A.(2019). O'tkan kunlar. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot. 45-bet.
5. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Mirzayev T.(Ed.). (1978). O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. O'qituvchi nashriyoti. 112-115- betlar.